

“TASDIQLAYMAN”

**“Raqamli hukumat loyihalarini
boshqarish markazi” davlat muassasasi
davlat muassasasi direktorining birinchi
o‘rinbosari**



Dj. Shoraxmedov

2025-yil

**“Raqamli hukumat” tizimining
Foydalanuvchilarni yagona identifikatsiya qilish tizimi
uchun PostgreSQL ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT) uchun
kengaytirilgan litsenziyani sotib olish bo‘yicha
ELEKTRON TANLOV XARID QILISH HUJJATLARI**

**Buyurtmachi: “Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi” davlat
muassasasi**

Toshkent – 2025-yil

ELEKTRON TANLOV HAQIDA MA'LUMOT

Tanlov mavzusi	“Raqamli hukumat” tizimining Foydalanuvchilarni yagona identifikatsiya qilish tizimi uchun PostgreSQL ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT) uchun kengaytirilgan litsenziya
Lotning bo'linishi	Bo'linmas lot
Xarid reja-jadvali	2025 yil, 4 chorak
Savdo o'tkazish davri (oyi)	2025 yil, 4 chorak
Moliyalashtirish manbai	O'z mablag'lari
Tanlovning boshlang'ich narxi	QQS bilan: 1 862 026 300,0 so'm; QQSsiz: 1 662 523 482,14 so'm
Taklif kafolati summasi	18 620 263,0 so'm (boshlang'ich narxning 1%)
To'lov shartlari	Oldindan to'lov: 15%, qolgan to'lov bajarilgan ishlar bo'yicha taqdim etilgan hisob faktura asosida amalga oshiriladi uchun amalga oshiriladi
Xizmatlarni yetkazib berish/ ko'rsatish joyi va shartlari	Toshkent shahri, Mirzo-Ulug'bek tumani, A. Mo'minov ko'chasi 7/2
Xizmatlarni yetkazib berish/ ko'rsatish muddati	Toshkent shahri, Mirzo-Ulug'bek tumani, A. Mo'minov ko'chasi 7/2, 60 ish kuni
Tanlash taklifining amal qilish muddati	Takliflarni qabul qilish muddati tugaganidan keyin kamida 90 kun
Takliflarni taqdim etish muddati	5 ish kuni
Aloqa uchun shaxs	Xarid komissiyasi a'zolari va mas'ul kotibi: Sh.Baxtiyorov Tel: 55-501-36-19

TANLOV ISHTIROKCHISI UCHUN YO'RIQNOMA

1	Umumiy qoidalar	1.1	Ushbu tanlov hujjatlari (keyingi o'rinlarda – tanlov hujjatlari) O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi O'RQ-684-sonli “Davlat xaridlari to'g'risida”gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 276-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi” to'g'risidagi nizomga muvofiq ishlab chiqilgan.
		1.2	“Raqamli hukumat” tizimining Foydalanuvchilarni yagona identifikatsiya qilish tizimi uchun PostgreSQL ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT) uchun kengaytirilgan litsenziya
		1.3	Boshlang'ich narx: QQS bilan: 1 862 026 300,0 cym; QQSsiz: 1 662 523 482,14 cym
		1.4	Tanlov bo'yicha xarid komissiyasining majlislari videokonferentsiya (telekonferentsiya va boshqa) formatida o'tkazilishi mumkin. Xarid komissiyasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ovoz beradi.
		1.5	Ushbu tanlov hujjatlarida ishlatiladigan asosiy tushunchalar: Avans to'lov – Buyurtmachi va xarid qilish tartib-taomillarining ishtirokchisi tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kiritiladigan, shu jumladan operator komission yig'imi va taraflarning zakalatlarini o'z ichiga olgan moliyaviy mablag'lar summasi; taklif ta'minoti – ishtirokchi tomonidan buyurtmachining talabiga binoan taqdim etiladigan takliflar va majburiyatlarning bajarilishini garov, kafolat, zakalat yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa usul shaklida ta'minlash. Bunda, agar g'olib shartnoma tuzishdan bosh tortsa, omonat qaytarilmaydi va ishtirokchilarning omonati g'olib aniqlangunga qadar operatorida saqlanadi. Operator tanlov natijalari bo'yicha shartnoma tuzilganidan keyin bir ish kuni ichida depozit blokirovkasini olib tashlaydi va uni pudratchining tegishli shaxsiy hisob raqamiga qaytaradi; davlat xaridlarining elektron tizimi operatori (keyingi o'rinlarda – operator) – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan davlat xaridlarining elektron tizimlarida xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish bilan bog'liq davlat xaridlari sub'yektlariga xizmatlar ko'rsatuvchi maxsus vakolatli yuridik shaxs; shaxsiy kabinet – maxsus axborot portalidagi individual sahifa bo'lib, u orqali davlat xaridlari sub'yektlariga elektron davlat xaridlarida ishtirok etish, shuningdek, kerakli ma'lumotlarni joylashtirish yoki olish imkoniyati beriladi;

			<p>hisob-kliring palatasi (keyingi o‘rinlarda – HKP deb yuritiladi) – shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarishga qodir bo‘lgan ishtirokchilarga avans to‘lovlarini depozit qilish va hisobga olish yo‘li bilan elektron xaridlardan foydalanishni ta‘minlovchi Operatorning tarkibiy bo‘linmasi;</p> <p>davlat xaridlarining elektron tizimi (keyingi o‘rinlarda – elektron tizim) – elektron davlat xaridlari jarayonida davlat xaridlari sub’ektlarining o‘zaro ishlashini, xarid qilish tartib-taomillari o‘tkazilishini ta‘minlovchi tashkiliy, axborot va texnik yechimlarning dasturiy kompleksi;</p> <p>elektron davlat xaridi – axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali davlat xaridlari sub’ektlari tomonidan davlat xaridlarini amalga oshirish shakli.</p>
2	Elektron tanlov tashkilotchilari	2.1	<p>Tanlov buyurtmachisi: “Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi” davlat muassasasi (keyingi o‘rinlarda – “Buyurtmachi”)</p> <p>“Buyurtmachi” manzili: Toshkent shahri, Mirobod tumani, Nukus ko‘chasi 22, 22a, 24.</p>
		2.2	<p>Elektron tanlovni amalga oshiruvchi operatorning nomi va uning veb-sayti havolasi: “O‘zRTXB” AJ www.etender.uzex.uz.</p>
		2.3	<p>Tanlov Buyurtmachi tomonidan tuzilgan kamida yettita a‘zodan iborat xarid komissiyasi tomonidan o‘tkaziladi.</p>
3	Elektron tanlov ishtirokchilari	3.1	<p>Elektron tanlov ishtirokchisi (keyingi o‘rinlarda ishtirokchi deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan, davlat xaridlarini bajarish bo‘yicha nomzod sifatida elektron tanlovda ishtirok etuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs hisoblanadi.</p>
		3.2	<p>Ishtirokchi quyidagilarga haqli:</p> <ul style="list-style-type: none"> - qonun hujjatlarida belgilangan doirada davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborotdan foydalanish; - Buyurtmachiga yoki u tomonidan jalb qilingan ixtisoslashtirilgan tashkilotga aniq davlat xaridlarini amalga oshirish tartiblari, talablari va shartlari to‘g‘risida so‘rovnomalar berish va tushuntirishlar olish; - tanlov natijalari ustidan davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish komissiyasiga shikoyat qilish; - qonun hujjatlariga muvofiq takliflarga o‘zgartirishlar kiritish yoki ularni qaytarib olish.
		3.3	<p>Ishtirokchi quyidagilarni bajarishi shart:</p> <ul style="list-style-type: none"> - davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya qilish; - tanlov hujjatlari talablariga muvofiq bo‘lgan taklif va hujjatlarni taqdim etish va taqdim etilgan axborotning ishonchliligi uchun javobgar bo‘lish; - asosiy benefitsiar mulkdor to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni oshkor qilish; - g‘olib deb topilgan taqdirda Buyurtmachi bilan qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda shartnoma tuzish;

			Ishtirokchi va uning affillangan shaxsi tanlovning ayni bitta lotida ishtirok etish huquqiga ega emas.
		3.4	Buyurtmachi bilan manfaatlar to'qnashuvi bo'lgan Ishtirokchi davlat xaridlarining ishtirokchisi bo'lishi mumkin emas.
4	Elektron tanlovga ruxsat	4.1	Buyurtmachilar va ishtirokchilar elektron tanlovda ishtirok etishlari HKPdagi o'zlarining shaxsiy hisobvaraqaqlariga avans to'lovini kiritganlaridan so'ng ruxsat etiladi.
		4.2	Buyurtmachi va ishtirokchilar elektron raqamli imzo (keyingi o'rinlarda - ERI) yordamida elektron tanlovda qatnashadilar. Buyurtmachi va ishtirokchi tomonidan ERIdan foydalanish elektron tizimda tuzilgan shartnomaning haqiqiylikini tan olish uchun asos hisoblanadi.
		4.3	Operatorning elektron tizimi avtomatik usulda: - har bir lot bo'yicha amalga oshirilgan avans to'lovi miqdoriga muvofiq elektron xaridlarga ruxsat berish; - elektron xaridlarni amalga oshirish; - elektron xaridlar natijalari bo'yicha ijrochini aniqlash; - bitimni rasmiylashtirish va shartnomani shakllantirishni amalga oshiradi.
		4.4	Ishtirokchilarni qabul qilish portalda ishtirokchining elektron shakldagi ariza shaklini to'ldirish orqali amalga oshiriladi. Ishtirokchilar ularning quyidagi mezonlarga muvofiqlikiga asoslanib qabul qilinadi: - shartnoma tuzishga qonuniy huquqqa egaligi; - soliq va yig'implarni to'lash bo'yicha qarzdorlikning mavjud emasligi; - ularga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartibtaomillari mavjud emasligi; - insofsiz ijrochilarning yagona reestrda qayd etilmaganligi; - buyurtmachi bilan ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha qabul qilingan noto'g'ri bajarilgan majburiyatlarning mavjud emasligi. Soliq organlari tomonidan berilgan elektron raqamli imzoning mavjudligi ishtirokchining shartnoma tuzish huquqini belgilaydi. Ishtirokchi ariza shaklida unga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillari mavjud emasligi, shuningdek soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzlari yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotlarni tasdiqlaydi. Ishtirokchi ariza shaklini to'ldirgandan so'ng, elektron tizim Insofsiz ijrochilarning yagona reestri ma'lumotlarini unda ishtirokchi qayd etilmaganligini aniqlash uchun tekshiradi.
		4.5	Ishtirokchi Buyurtmachiga ochiq elektron chatda yoki yozma ravishda elektron pochta orqali tanlov hujjatlari talablarini tushuntirish uchun so'rov yuborish huquqiga ega. Buyurtmachi, o'z navbatida, ushbu so'rov bo'yicha tushuntirishni so'rov olingan kundan boshlab ikki ish kuni

			ichida ochiq elektron chat orqali yoki yozma ravishda elektron pochta orqali yuboradi.
5	Tanlovda ishtirok etish va taklif ta'minotini taqdim etish tartibi	5.1	Taklifni ta'minlash tartibi, shu jumladan tanlov ishtirokchisining qaytarib bo'lmaydigan taklifini kafolatlovchi naqd pul o'tkazmasining miqdori, kiritish va qaytarish tartibi elektron davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq belgilanadi.
		5.2	Elektron tanlovda ishtirok etish uchun ishtirokchi: - etender.uzex.uz portalida ro'yxatdan o'tadi va ro'yxatdan o'tish sahifasidagi kerakli bo'limlarni to'ldiradi (mijoz turi, shaxsiy ma'lumotlar, aloqa uchun ma'lumotlar). Individual tadbirkor va rezident tizimda faqatgina elektron raqamli imzo (ERI) bilan ro'yxatdan o'tishlari mumkin; - ro'yxatdan o'tish jarayoni tugaganidan so'ng ishtirokchi uchun HKPda hisobvaraq ochiladi. Ishtirokchilar, ularning HKPdagi hisobvaraqlarida avans to'lovi yetarli miqdorda bo'lsa, elektron davlat xaridlarida ishtirok etadilar; - ishtirokchi tanlov shartlari bilan batafsil tanishgandan so'ng elektron tanlovda ishtirok etish uchun ariza beradi va "Umumiy ma'lumot" sahifasida, "Tovarlar va buyumlar", "Talablar" bo'limlarida kerakli ma'lumotlarni to'ldiradi. Agar ijrochining "Talablar" bo'limida ma'lumotlarni kiritayotganda qaysidir talab bo'yicha tasdiqlovchi hujjat taqdim etilishi so'ralsa, bunday hujjat fayl tariqasida yuklanishi lozim.
		5.3	Elektron tanlovni o'tkazishda, ishtirokchilar tomonidan zakalat kiritish zaruriyati va uning miqdori buyurtmachi tomonidan belgilanadi, hamda kiritilgan zakalat elektron tanlov g'olibi bilan shartnoma tuzilgunga qadar Operator tomonidan bloklanadi.
		5.4	Ishtirokchi tomonidan taklif ta'minoti summasi to'lanishi talab qilinmaydi va quyidagi hodisalardan biri sodir bo'lganda bir ish kuni davomida ta'minot hagiidagi hujjat qaytariladi yoki uning qaytarilishi ta'minlanadi: - taklif ta'minoti amal qilish muddati tugaganda; - davlat xarid shartnomasi kuchga kirganda va shu shartnoma bajarilishi ta'minoti taqdim etilganda; - elektron tanlov bekor qilinganda; - takliflarni taqdim etishning oxirgi muddati tugashidan oldin taklif qaytarib olinganda.
		5.5	Elektron tanlov natijasida shartnoma tuzilganidan so'ng Operator bir ish kuni ichida zakalatni blokirovkadan yechadi va ijrochining tegishli hisobvarag'iga qaytaradi. Buyurtmachi tomonidan o'tkazilgan elektron tanlov ishtirokchilari zakalat kiritilgan bo'lsa, u shartnoma tuzilganidan keyin bir ish kuni ichida blokdan chiqariladi va Operator tomonidan ijrochining tegishli hisob varag'iga qaytariladi. Elektron tanlov natijalariga ko'ra, ishtirokchining avans to'lovlari summasidan portal bitimning haqiqiy summasidan operator komissiya to'lovini undiradi.

			<p>Ishtirokchilarning blokdan chiqarilgan mablag'lari ularning nomidan boshqa elektron davlat xaridlarida ishtirok etish uchun avans to'lovlari sifatida ishlatilishi yoki xizmat ko'rsatuvchi banklardagi hisobvaraqlariga qaytarilishi mumkin.</p>
6	<p>Tanlov takliflarini baholash tartibi</p>	6.1	<p>Ishtirokchilarning blokdan chiqarilgan mablag'lari ularning nomidan boshqa elektron davlat xaridlarida ishtirok etish uchun avans to'lovlari sifatida ishlatilishi yoki xizmat ko'rsatuvchi banklardagi hisobvaraqlariga qaytarilishi mumkin.</p> <p>Xarid komissiyasi tomonidan belgilangan muddatda elektron tanlov o'tkazilganda, elektron tizim ishtirokchilar tomonidan joylashtirilgan va ularning tanlov takliflarini tashkil etuvchi elektron hujjatlardan avtomatik ravishda foydalanish imkonini beradi.</p> <p>Ishtirokchi tomonidan ilova qilingan fayllar uning tanlov taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlarga mos kelishi, elektron tizimning elektron maydonlari esa ishtirokchi tomonidan to'ldirilishi kerak.</p> <p>Elektron tizim ishtirokchining taklif etayotgan narxi boshlang'ich narxga mos kelishini, elektron maydonlar to'ldirilganligini va ilova qilingan fayllar mavjudligini tekshiradi. Ishtirokchi tomonidan taklif qilingan narx boshlang'ich narxdan oshib ketgan hollarda, shuningdek bo'sh maydonlar yoki to'liq bo'lmagan birlashtirilgan fayllar mavjud bo'lganda, tizim rad etish sabablarini ko'rsatgan holda ishtirokchining tanlov taklifini rad etadi. Ilova qilingan fayllardagi ma'lumotlarning ishtirokchining tanlov taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiqligini tekshirish xarid komissiyasining mas'ul kotibi tomonidan amalga oshiriladi.</p>
		6.2	<p>Tanlov takliflarini baholash quyidagi ketmaketlikda amalga oshiriladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - tanlov taklifining xarid hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiq tayyorganligini tekshirish; - ishtirokchining malakaviy talablariga muvofiqligini baholash (agar tanlov hujjatlarida nazarda tutilgan bo'lsa); - tanlov taklifining texnik qismini baholash; - tanlov taklifining narx qismini baholash. <p>Bunda tizim tanlov taklifining malakaviy, texnik va narx qismlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlarning tanlov taklifining oldingi qismi bo'yicha baholash natijalari umumlashtirilganidan keyin ketma-ket ochilishini ta'minlaydi.</p>
		6.3	<p>Elektron tanlov ishtirokchilari rasmiylashtirishi kerak bo'lgan hujjatlar ushbu yo'riqnomaning 1- ilovasida keltirilgan (1,2,3,4,5,6 shakllar).</p>
		6.4	<p>Tanlov takliflarni baholash va tanlov g'olibini aniqlash xarid hujjatlarida (2-ilova) belgilangan ketma-ketlik, tartib, mezon va usul asosida amalga oshiriladi.</p>
		6.5	<p>Ishtirokchi tanlovda ishtirok etishdan chetlatiladi, agarda:</p>

		<ul style="list-style-type: none"> - ishtirokchi Buyurtmachi bilan ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini lozim darajada bajarmagan bo'lsa; - ishtirokchi Insofsiz ijrochilar yagona reestrda qayd etilgan bo'lsa; - soliqlar va yig'imlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorligi mavjud bo'lsa; - unga nisbatan bankrotlik tartib-tamoillari joriy etilgan bo'lsa; - ishtirokchi xarid hujjatlarining malakaviy, texnik va tijorat talablariga javob bermasa; - ishtirokchi davlat xaridlari jarayonida buyurtmachi tomonidan biror-bir xatti-harakatning sodir etilishiga, qaror qabul qilinishiga yoki birorbir xarid qilish tartib-taomilining qo'llanilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida buyurtmachining yoki boshqa davlat organining istalgan hozirgi yoki sobiq mansabdor shaxsiga yoki xodimiga har qanday shakldagi haqni, ishga yollash to'g'risidagi taklifni yoxud istalgan boshqa qimmatbaho ashyoni yoki xizmatni bevosita yoxud bilvosita taklif qilsa, bersa yoki berishga rozilik bildirsa; - ishtirokchi raqobatga qarshi harakatlarni sodir etgan yoki qonunni buzgan holda, manfaatlar to'qnashuvi sodir bo'lsa, shuningdek afillanganlik holatlari aniqlanganda; - ishtirokchi korruptsiya ko'rinishlarining oldini olish to'g'risida ariza taqdim etmagan bo'lsa; - ishtirokchilar tomonidan zarur hujjatlar to'plami belgilangan muddatda taqdim etilmaganligi yoki o'z vaqtida taqdim etilgan hujjatlar to'plami xarid hujjatlari talablariga javob bermaganligi; - tanlov ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan hujjatlardagi ma'lumotlarning ishonchsizligi aniqlangsa. Ishtirokchini ishtirok etishdan chetlashtirish to'g'risida qaror xarid qilish tartib-taomillari va uning sabablari xarid tartib-taomillari to'g'risidagi hisobotga kiritiladi va ular darhol tegishli ishtirokchiga xabar qilinadi.
	6.6	<p>Taklif Qonun va xarid hujjatlari talablariga muvofiq bo'lsa, tegishli tarzda rasmiylashtirilgan deb e'tirof etiladi. Xarid komissiyasi mas'ul kotibining ishtirokchining tanlov taklifini to'g'ri rasmiylashtirilgan yoki lozim darajada rasmiylashtirilmagan deb e'tirof etish to'g'risidagi qarori bunday qarorning sabablarini asoslagan holda xarid komissiyasi tomonidan tasdiqlanishi kerak.</p> <p>Ishtirokchining tanlov taklifi talablarga mos kelmasligi to'g'risidagi qaror bunday qarorning sabablari ko'rsatilgan holda qaror qabul qilingan kuni ishtirokchining shaxsiy kabinetiga yuboriladi.</p>
	6.7	<p>Tanlov takliflarni baholash jarayonida xarid komissiyasi elektron tanlov ishtirokchilaridan ularning tanlov takliflari bo'yicha tushuntirishlar so'rashi mumkin. Ushbu tartib elektron shaklda amalga oshiriladi.</p>

			Tushuntirish jarayonida taklifning mohiyati, shuningdek, narx bo'yicha hech qanday o'zgarishlarga yo'l qo'yilmaydi.
		6.8	Tanlov ishtirokchilari tanlov takliflarini ko'rib chiqish va baholash muddati takliflarni topshirish muddati tugagan kundan boshlab 10 (o'n) ish kunidan oshmasligi lozim.
7	Elektron tanlovda ishtirok etish uchun takliflarni taqdim etish	7.1	Tanlov taklifi va u bilan bog'liq barcha yozishmalar va ishtirokchi va buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladigan hujjatlar o'zbek yoki rus tillarida bo'lishi kerak. Taklif boshqa tilde bo'lishi mumkin, agar unga o'zbek yoki rus tillarida aniq tarjima ilova qilingan bo'lsa. Agar jumla matnida bir nechta til ishlatilgan bo'lsa, o'zbek yoki rus tillari ustunlik qiladi.
		7.2	Elektron tanlov o'tkazishda ishtirokchilar o'z tanlov takliflarini elektron konvertlar ko'rinishida o'zlarining shaxsiy kabineti orqali elektron tanlov e'lonida ko'rsatilgan muddatdan kechiktirmay taqdim etadilar. Har bir joylashtirilgan elektron hujjat ishtirokchining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.
		7.3	Tanlov taklif bilan bir qatorda, ishtirokchilar eskizlar, suratlar, chizmalar, fotosuratlar va boshqa hujjatlarni fayl shaklida joylashtirishlari mumkin. <i>* Agar davlat xaridlari sharoitida ishtirokchilar tomonidan sotib olish ob'ekti bo'lgan tovarlarning namunasini, namunasini taqdim etish nazarda tutilgan bo'lsa, sotib olish komissiyasi ularni ishtirokchilar tomonidan topshirishning alohida tartibini belgilaydi.</i> Shu bilan birga, ishtirokchilarning tanlov takliflari elektron tizimdagi shablonlarga muvofiq hujjatlar ilova qilingan holda taqdim etiladi. Ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar ilova qilingan hujjatlardagi ma'lumotlarga mos kelishi kerak.
		7.4	Tanlov takliflarni ochishning oxirgi muddati tugagunga qadar ularni elektron tanlov ishtirokchilari, shu jumladan mas'ul kotib va xarid komissiyasi a'zolari ko'rishiga yo'l qo'yilmaydi, ushbu takliflarni kiritgan ishtirokchi bundan mustasno. Operator ushbu talabga rioya qilish uchun javobgardir.
		7.5	Elektron tanlov ishtirokchisi: - bitta lot bo'yicha faqat bitta tanlov taklif kiritish huquqiga ega; - taqdim etilgan ma'lumotlar va hujjatlarning haqiqiyliги va ishonchliligi uchun javobgar; - takliflarni topshirish muddati tugagunga qadar berilgan tanlov taklifni qaytarib olish yoki unga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega.
		7.6	Elektron tizim tomonidan tanlov takliflarni qabul qilish e'londa ko'rsatilgan muddatda va vaqtda tugatiladi.
		7.7	Ishtirokchining narx taklifi elektron tizimning tegishli bo'limiga kiritiladi.
		8.1	Zarur hollarda buyurtmachi barcha ishtirokchilarga taalluqli bo'lgan tanlov takliflarni taqdim etish muddatini uzaytirishi yoki xarid komissiyasining qarori bilan ishtirokchilarga o'z tanlov takliflarining amal qilish

			muddatini ma'lum muddatga uzaytirish taklifi bilan murojaat qilishi mumkin.
8	Tanlov takliflarni taqdim etish muddatini uzaytirish	8.2	Buyurtmachi, xarid komissiyasi bilan kelishilgan holda, tanlovda ishtirok etish uchun takliflarni taqdim etish muddati tugagunga qadar bir ish kunidan kechiktirmay tanlov hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli. Tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) nomini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi. Bunda, ushbu tanlov bo'yicha takliflarni taqdim etish muddati tanlov hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilgan kundan boshlab kamida o'n ish kuniga uzaytirilishi kerak. Shu bilan birga, agar e'londa ko'rsatilgan ma'lumotlar o'zgartirilgan bo'lsa, tanlov e'loniga o'zgartirishlar kiritiladi.
		9.1	Tanlov haqiqiy emas deb topiladi agar: - tanlovda bitta ishtirokchi qatnashgan bo'lsa yoki hech kim qatnashmagan bo'lsa; - agar texnik baholash bosqichida xarid komissiyasi barcha takliflarni rad etgan bo'lsa yoki faqat bitta taklif xarid hujjatlari talablariga javob bersa. Bunda buyurtmachi xarid hujjatlarida tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) qo'yiladigan mezonlar va talablarda belgilangan shartlar asosida yana bir bor elektron tanlov o'tkazishi shart. Tanlov bo'yicha xarid hujjatlari bilan belgilangan shartlarga qarab, elektron tizim avtomatik rejimda takliflarning texnik qismini baholash natijalari bo'yicha elektron tanlovda keyingi ishtirok etishga qo'yilgan ishtirokchilar orasidan eng past narxni taklif qilgan ishtirokchini g'olib sifatida belgilaydi zaxira ijrochini aniqlash ushbu bandda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.
9	Elektron tanlov natijalarini umumlashtirish	9.2	Tanlov takliflarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha xarid komissiyasining kotibi tizimda mavjud shablonlardan kelib chiqib, xarid komissiyasi majlislarining elektron bayonnomalarini shakllantiradi va ularni xarid komissiyasi a'zolariga tasdiqlash uchun yuboradi. Xarid komissiyasi a'zolari o'zlarining elektron raqamli imzolaridan foydalangan holda majlislarning elektron bayonnomalarini tasdiqlaydilar. Elektron bayonnomadan ko'chirma avtomatik tarzda portalda e'lon qilinadi.
		9.3	Elektron tanlovning har qanday ishtirokchisi, takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasi e'lon qilinganidan so'ng, tanlov natijalarini aniqlashtirish uchun buyurtmachiga so'rov yuborish huquqiga ega. Buyurtmachi bunday so'rov olingan kundan boshlab uch ish kuni ichida tanlov ishtirokchisiga chat orqali tegishli tushuntirishlarni taqdim etishi shart.
		10.1	Elektron tanlov ishtirokchisi buyurtmachiga ochiq elektron chat orqali xarid hujjatlari qoidalarini tanlov takliflari taqdim etish muddati tugaguniga qadar kamida ikki ish kunidan aniqlik kiritish haqida so'rov yuborish huquqiga ega. Ko'rsatilgan so'rov kelib tushgan sanadan

			<p>boshlab ikki ish kuni mobaynida buyurtmachi ochiq elektron chat orqali xarid hujjatlari qoidalarini tushuntirib yuborishi shart, agar ko'rsatilgan so'rov buyurtmachiga takliflar berish muddati tugaguniga qadar ikki ish kundan kechiktirmasdan kelib tushgan bo'lsa.</p> <p>Xarid hujjatlari qoidalarini tushuntirish uning mohiyatini o'zgartirmasligi kerak.</p>
10	Boshqa shartlar	10.2	Elektron tanlov ishtirokchisi takliflar berish muddati tugagunga qadar berilgan tanlov taklifini qaytarib olish yoki unga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega.
		10.3	Buyurtmachi g'olib bo'lgan taklifni qabul qilgunga qadar har qanday vaqtda tanlovni bekor qilish huquqiga ega. Buyurtmachi tanlov bekor qilingan taqdirda ushbu qarorning asosli sabablarini maxsus axborot portalida elektron tizim orqali bunday qaror qabul qilingandan so'ng uch ish kuni ichida e'lon qiladi.
11	Shartnoma tuzish	11.1	Elektron tanlov natijalari bo'yicha shartnoma tanlov g'olibini tanlash va taklif qilish bo'yicha xarid hujjatlarida ko'rsatilgan shartlar asosida, g'olibni e'lon qilgan paytdan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay tuziladi. Imzolangan shartnoma shartnomalar reestriga kiritiladi.
		11.2	G'olib shartnoma tuzishdan bosh tortgan taqdirda zakalat miqdori unga qaytarilmaydi. Bunday holda, agar zaxira g'olibi aniqlansa, shartnoma tuzish va u bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi huquqi zaxira g'olibiga o'tadi. Bunda zaxira g'olibi bilan g'olib tomonidan taklif etilgan narx bo'yicha shartnoma tuziladi (zaxira g'olibi tomonidan taklif etilgan narx g'olib tomonidan taklif etilgan narxdan past bo'lgan hollar bundan mustasno) yoki u shartnoma tuzishdan bosh tortishi mumkin. Agar zaxira g'olibi aniqlanmagan bo'lsa yoki zaxira g'olibi shartnoma tuzishdan bosh tortsa, buyurtmachi yangi elektron tanlov o'tkazadi.

Tanlov takliflarni baholash ketma-ketligi:

Tanlov takliflarni baholash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- xarid hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga muvofiq taklifni rasmiylashtirilishini tekshirish (1-jadval);

- ishtirokchining malakaviy va talablarga muvofiqligini texnik qismini baholash baholash (2-jadval);

Shu bilan birga, tizim taklifning avvalgi qismini baholash natijalarini sarhisob qilib bo'lgandan keyin taklifning malakaviy, texnik va narx qismlarida mavjud bo'lgan axborotni ketma-ket ochilishini ta'minlaydi.

Ishtirokchilar tomonidan elektron tanlovda ishtirok etish uchun rasmiylashtiriladigan hujjatlar

RO'YXATI

1-jadval

t/r	Tanlovda ishtirok etish uchun ishtirokchilar tomonidan rasmiylashtiriladigan hujjatlar va ma'lumotlar	Izoh
1	Xarid komissiyasi raisi nomiga elektron tanlovda ishtirok etish uchun ariza (1-shakl)	1-shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi
2	Tashkilotning Davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma	Hujjat bo'lmagan taqdirda, ishtirokchi keyingi bosqichga yo'l qo'yilmaydi
3	Quyidagi haqida kafolatlovchi hujjat:	
3.1	<ul style="list-style-type: none"> - Ishtirokchida soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha kechiktirilgan qarzdorlik mavjud emas; - Bankrotlik tartibi mavjud emasligi; - Ishtirokchi haqida Vijdonsiz ijrochilar yagona reestrda yozuv mavjud emas; - Ishtirokchida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi ma'lumotlar bazalarida sud qarorlari bo'yicha bajarilmagan majburiyatlar mavjud emas; - Ishtirokchi imtiyozli soliq rejimi taqdim etadigan davlatlarda yoki hududlarda ro'yxatdan o'tmagan va bank hisob raqamiga ega emas hamda moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda ma'lumotni oshkor qilish va taqdim etishni nazarda tutmaydigan (offshor zonalar) hududlarda faoliyat yuritmaydi; - Ishtirokchilarning (jumladan, arbitraj munosabatlariga ega ishtirokchilar) ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik holatlari yuzasidan ishlar hozirgi buyurtmachi bilan sudda ko'rilgan. 	2-shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi
4	Tanlov ishtirokchisi haqida umumiy ma'lumot	3-shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi

5	Ishtirokchining moliyaviy holati haqida ma'lumot	4-shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi
6	Soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik mavjud emasligi to'g'risida ma'lumot	Vakolatli organdan ma'lumotnoma taqdim etiladi, agar muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lsa, ishtirokchi tanlovda ishtirok etishdan chetlatiladi
7	Ishtirokchida manfaatlar to'qnashuvi va boshqa ishtirokchilar va/yoki Buyurtmachi bilan aloqadorlik mavjud emas	5-shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi
8	Korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ariza	5-shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi

ISHTIROKCHINING FIRMA BLANKIDA

№: _____

Sana: _____

Xarid komissiyasiga

ARIZA

____-sonli lot bo'yicha (taklif qilinayotgan tovarlar/xizmatlar nomini ko'rsating) tanlov hujjatlarini, so'rovnomalarga berilgan javoblarni o'rganib chiqib, ularni olganimizni tasdiqlaymiz, biz, quyida imzo chekuvchilar (Tanlov ishtirokchisi nomi), tanlov hujjatlariga muvofiq tovarlarni/xizmatlarni yetkazib berish uchun elektron tanlovda ishtirok etishni niyat qilmoqdamiz.

Shu munosabat bilan biz quyidagi hujjatlarni yuboryapmiz:

1. Elektron tanlov ishtirokchisi haqida umumiy ma'lumot;
2. Ishtirokchini yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ma'lumotnomaning nusxasi;
3. Ishtirokchining tashkiliy tuzilmasi.
4. ____ varaqdagi malakaviy hujjatlar to'plami (varaqlar soni ko'rsatiladi, risolalar, bukletlar, prospektlar va boshqalar taqdim etilgan taqdirda soni ko'rsatiladi);
5. Texnik taklif (varaqlar sonini ko'rsating, risolalar, bukletlar, prospektlar va boshqalar taqdim etilgan taqdirda sonini ko'rsating);
6. Boshqa hujjatlar (boshqa hujjatlar taqdim etilganda, nomi va varaqlarning soni ko'rsatilishi shart).

Tanlov taklifini tayyorlash uchun mas'ul shaxsning to'liq ismi sharifi:

Aloqa uchun telefon/faks: _____

E-mail manzili: _____

Rahbar yoki vakolatli shaxsning to'liq ismi sharifi va imzosi

Muhr o'rni

ISHTIROKCHINING FIRMA BLANKIDA

2-shakl

Xarid komissiyasi

KAFOLAT XATI

Ushbu xat bilan _____ kompaniyasi:
(kompaniya nomi)

- Ishtirokchida soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha kechiktirilgan qarzdorlik mavjud emas;
- Bankrotlik tartibi mavjud emasligi;
- Insofsiz ijrochilarning yagona reestrída qayd etilmaganligini;
- Ishtirokchida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi ma'lumotlar bazalarida sud qarorlari bo'yicha bajarilmagan majburiyatlar mavjud emas;
- Ishtirokchi imtiyozli soliq rejimi taqdim etadigan davlatlarda yoki hududlarda ro'yxatdan o'tmagan va bank hisob raqamiga ega emas hamda moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda ma'lumotni oshkor qilish va taqdim etishni nazarda tutmaydigan (offshor zonalar) hududlarda faoliyat yuritmaydi;
- Ishtirokchilarning (jumladan, arbitraj munosabatlariga ega ishtirokchilar) ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik holatlari yuzasidan ishlar hozirgi buyurtmachi bilan sudda ko'rilmaganligini tasdiqlaymiz.

Rahbar yoki vakolatli shaxsning F.I.Sh. va imzosi

Muhr o'rni

Tanlov ishtirokchisi haqida umumiy ma'lumot

1	Tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan yuridik shaxsning to'liq nomi	
2	Ro'yxatdan o'tganlik to'g'risidagi ma'lumotlar (ro'yxatga olingan sana, ro'yxatga olish raqami, ro'yxatdan o'tkazgan organning nomi)	
3	Yuridik manzili	
4	Telefon, Fax, e-mail	
5	Bank rekvizitlari	
6	Mulkchilik shakli	

Shunga o'xshash ishla, xizmatlar ko'rsatilganlik tajribasi haqida ma'lumot

T/r	Mamlakat	Mijoz nomi	Sana	Shartnoma tavsifi
1.				
2.				
3.				
...				

(vakolatli shaxsning imzosi)

(vakolatli shaxsning to'liq ismi sharifi va lavozimi)

Muhr o'rni

Sana: _____ 2025-yil.

ISHTIROKCHNING MOLIYAVIY HOLATI (*)

Tanlov ishtirokchisining nomi: _____

_____ ming (valyutani ko'rsating)

AKTIV	2022-y.	2023-y.	2024-y.	PASSIV	2022-y.	2023-y.	2024-y.
